

DOKTOR SYUZNING BOLALAR ADBIYOTIDAGI ZAMONAVIY IJTIMOIY MUAMMOLAR TALQINI VA UNING ADABIY TANQIDDAGI YONDASHUVLARI

**Bo'riyeva Gulhayo Ivadulla qizi -Toshkent davlat yuridik universiteti katta
o'qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Doktor Syuzning bolalar adabiyotida zamonaviy ijtimoiy muammolarni aks ettirishdagi badiiy uslubi va uning ijodiga nisbatan adabiy tanqidiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Yozuvchining ekologiya, tenglik, diskriminatsiya va inson huquqlari kabi mavzularni metafora, satira va allegoriya san'atlari orqali ifodalashi o'rganiladi. Shuningdek, Syuz ijodining ekotanqidiy, ijtimoiy-madaniy va kognitiv talqinlari ko'rib chiqilib, uning asarlari bolalarning tanqidiy fikrlashi va ijtimoiy ongini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi.

Abstract. This article analyzes Dr. Seuss's artistic style in portraying contemporary social issues in children's literature, as well as the literary-critical approaches to his works. It examines how the author addresses themes such as ecology, equality, discrimination, and human rights through the use of metaphor, satire, and allegory. The study also explores ecocritical, sociocultural, and cognitive interpretations of Seuss's writings, revealing their significant impact on the development of children's critical thinking and social awareness.

Аннотация. В данной статье анализируются художественный стиль доктора Сьюза в отражении современных социальных проблем в детской литературе, а также литературно-критические подходы к его творчеству. Исследуется, как писатель раскрывает темы экологии, равенства, дискриминации и прав человека посредством метафоры, сатиры и аллегии. Кроме того, рассматриваются экокритические, социокультурные и когнитивные

интерпретации творчества Сьюза, выявляя его значительное влияние на формирование критического мышления и социального сознания у детей.

Kalit soʻzlar. Doktor Syuz; bolalar adabiyoti; ijtimoiy muammolar; ekotanqid; tenglik; diskriminatsiya; inson huquqlari; satira; allegoriya; ijtimoiy-madaniy tahlil; kognitiv talqin.

Keywords. Dr. Seuss; children's literature; social issues; ecocriticism; equality; discrimination; human rights; satire; allegory; sociocultural analysis; cognitive interpretation.

Ключевые слова. Доктор Сьюз; детская литература; социальные проблемы; экокритика; равенство; дискриминация; права человека; сатира; аллегория; социокультурный анализ; когнитивная интерпретация.

Zamonaviy bolalar adabiyotida ijtimoiy muammolarni badiiy talqin qilish anʼanasi XX asrning ikkinchi yarmida yangi bosqichga koʻtarildi. Ayniqsa, amerikalik yozuvchi va rassom Doktor Syuz (Theodor Seuss Geisel) ning ijodi bolalar uchun moʻljallangan matnlarning estetik koʻrinishi, gʻoyaviy mazmuni va ijtimoiy funksiyasini qayta belgilab berdi. Uning asarlarida atrof-muhit muhofazasi, isteʼmolchilik jamiyati, diskriminatsiya, tenglik, inson huquqlari, shaxsiy masʼuliyat kabi dolzarb masalalar oʻziga xos satira, ritmik uslub, quvnoq obrazlar va metaforik timsollar orqali yoritiladi. Doktor Syuzning “The Lorax” [1, b. 64], “Horton Hears a Who!” [2, b. 72], “The Sneetches” [3, b. 65] kabi asarlari nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida ham muhim oʻrin tutadi. Shu bois, uning asarlariga olimlar tomonidan ekokritika, feminizm, postmodernizm, didaktik va pedagogik yondashuvlar asosida turlicha talqinlar berilgan. Ushbu maqolada Doktor Syuzning bolalar adabiyotidagi zamonaviy ijtimoiy muammolarni aks ettirish usullari hamda ularning adabiy tanqid nuqtayi nazaridan baholanishi tahlil qilinadi.

Doktor Syuzning bolalar adabiyotidagi zamonaviy ijtimoiy muammolarni talqin qilishga doir yondashuvi ko‘proq metaforik struktura, allegorik obrazlar va ritmik diskurs orqali shakllangan bo‘lib, bu uslub unga ijtimoiy-huquqiy va axloqiy masalalarni bolalar ongiga mos ravishda yetkazish imkonini beradi. “The Lorax” asarida ekologik inqiroz, iste’molchilik mentaliteti va korporativ manfaatparastlik One-ler obrazi orqali keskin tanqid qilinadi; asar ekologik adolat va insoniyatning tabiat oldidagi ma’naviy mas’uliyatini ilgari surishi bilan ekotanqidiy tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi [4, b. 267]. Shu bilan birga, “Horton Hears a Who!” asari orqali Syuz inson huquqlari, ovoz berish tengligi va jamiyatning ko‘rinmas guruhlarini himoya qilish g‘oyalarini ilgari suradi. “A person’s a person, no matter how small” (Inson qanchalik kichik bo‘lmasin, u baribir insondir) degan g‘oya adabiy tanqidchilarning fikriga ko‘ra, kichik guruhlarining ijtimoiy maydondagi o‘rnini tasvirlashda universal g‘oya sifatida talqin qilinadi [5, b. 10-15]. “The Sneetches” asarida esa irqiy ajratish, kamsitish va ijtimoiy stratifikatsiya(nufuzi) masalalari o‘tkir satira orqali ochiladi; bu asar zamonaviy diskriminatsiya, ijtimoiy tenglik va o‘ziga xoslik muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda asosiy matnlardan biri sifatida qayd etiladi (6, b.45-59). Adabiy tanqid nuqtayi nazaridan, Syuzning badiiy uslubi postmodern timsollar, intertekstuallik hamda estetik o‘yinlar kombinatsiyasidan tashkil topgan bo‘lib, u bolalar adabiyotining didaktik xarakterini yangicha bosqichga olib chiqqan (7, b. 130). Demak, Syuzning asarlarida ijtimoiy muammolar nafaqat axloqiy-ma’rifiy g‘oya sifatida, balki bolani mustaqil fikrlashga undovchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi badiiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiy tanqidchilar Doktor Syuzning ijodini nafaqat mazmun jihatidan, balki uning uslubiy innovatsiyalari orqali ham tahlil qiladilar. Syuzning poetik sintaksisi, hech kimnikiga o‘xshamagan so‘z yasash usullari va ritmik eksperimentlari bolalar adabiyotidagi lingvistik ijodni yangi bosqichga ko‘targan bo‘lib, bu jarayon

poststrukturalist yondashuvlar doirasida “tilning o‘ynoqi tabiatini” ifodalovchi badiiy hodisa sifatida baholanadi (8, b. 200). Tanqidchilar uning multimodal yondashuvini - ya’ni matn va tasvirning o‘zaro semantik bog‘likligini bolalarda kognitiv rivojlanishni faol qo‘llab-quvvatlovchi estetik mexanizm sifatida ko‘rishadi (9, b. 110). Syuzning satira va yumorni asosiy g‘oyaviy yuklovchi vosita sifatida qo‘llashi esa ijtimoiy-madaniy yondashuvlarda jamiyatdagi munosabatlarni yumshoq, ammo ta’sirchan tarzda tanqid qilish strategiyasi sifatida izohlanadi. Shu sababli, u haqidagi zamonaviy tanqidiy tadqiqotlarda Syuzning ijodi pedagogik, kognitiv va semiotik jihatlar kesishgan nuqta sifatida ko‘riladi.

Doktor Syuzning bolalar adabiyotidagi zamonaviy ijtimoiy muammolarni talqin etish usuli uning badiiy tafakkurining kengligi va pedagogik qarashlarining teranligini namoyon etadi. U ekologik inqiroz, diskriminatsiya, inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy mas’uliyat kabi dolzarb masalalarni metaforik obrazlar, satira va ritmik diskurs orqali bolalar ongiga mos tarzda yoritadi. Syuzning asarlariga berilgan adabiy tanqidiy yondashuvlar uning ijodini ekotanqidiy, ijtimoiy-madaniy tadqiqotlari, poststrukturalizm va kognitiv poetika nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini yaratadi. Natijada, uning merosi nafaqat badiiy-estetik ahamiyatga, balki jamiyat ongini shakllantirish, bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o‘quvchilarni ijtimoiy muammolarni anglashga undash kabi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shunday qilib, Doktor Syuzning ijodi zamonaviy bolalar adabiyotining ma’naviy, ijtimoiy va ilmiy-nazariy rivojida o‘ziga xos fenomen sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Seuss Dr. Lorax-T: Random House, 1971-63 b.
2. Seuss Dr. Horton Hears a Who-T: Random House, 1954-72 b.
3. Seuss Dr. The Sneetches-T: Random House, 1961-65 b.
4. Neil. P. Dr. Seuss: American icon- r: Continuum, 2004-320 b.
5. MacDonald, R. H. The politics of Dr. Seuss.-T: *Children’s Literature Association Quarterly*, 13(1), 1988-186 b.

6. Person, L. S. Environmentalism and ethics in Dr. Seuss's works. -T: *Children's Literature Review*, 2012- 173 b.
7. Trites, R. S. *Waking Sleeping Beauty: Feminist voices in children's novels*. –T: University of Iowa Press, 1997)- 168 b.
8. Lurie, A. *Don't tell the grown-ups: The subversive power of children's literature*. – T: Little, Brown and Company, 1990 – 256 b.
9. **Nikolajeva, M. *Reading for learning: Cognitive approaches to children's literature*. -T: John Benjamins Publishing, 2014-255 b.**

